

# **MAVZU. MEHNAT BOZORI STATISTIKASI**

**Reja:**

- 1. Xalqaro mehnat tashkiloti.**
- 2. Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari.**

- ishbilarmon aholi;
- iqtisodiy faol aholi;
- to`lanadigan bandlik;
- umumiy mehnat resurslari;
- ishsizlar.

# Xalqaro mehnat tashkiloti

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) 1919 yilda Versal tinchlik shartnomasiga binoan tashkil etilgan. XMTni boshqa xalqaro tashkilotlardan ajratib turuvchi xususiyati, uning organlaridagi uch tomonlama vakillik prinsipi hisoblanadi:

- XMTga a'zo davlatlarning boshqaruv vakillari;
- kasaba uyushmalarining vakillari;
- milliy tadbirkorlar tashkilotlarining vakillari.

# Xalqaro mehnat tashkiloti

Umumiy holda XMTning asosiy vazifalari quyidagilar:

- ish vaqtining reglamentatsiyasi;
- ishchi kuchining reglamentatsiyasi;
- ishsizlik bilan kurashish;
- normal yashash sharoitini ta'minlab beradigan, ish haqi kafolatini ishlab chiqish;
- kasbiy kasalliklar va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan himoya qilish;
- ish bilan band bo`lgan bolalar, ayollar va o`smirlarni himoya qilish;
- ijtimoiy sug`urta va ijtimoiy ta'minot masalalarini tartiblash;
- kasbiy-texnik ta'limni tashkil etish.

# Xalqaro mehnat tashkiloti

Ushbu vazifalarни amalga oshirish mexanizmi sifatida quyidagilar xizmat qiladi:

- hodimlarning mehnat va yashash sharoiti masalasida normativ hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish yo`li bilan mehnatni xalqaro-huquqiy tartiblanishida ishtirok etish. Maxsus tarmoq qo`mitalari turli mamlakatlarning metallurgiya, kimyo, neft, to`qimachilik va iqtisodiyotning boshqa sanoatlari rivojlanishining ijtimoiy aspektlarini ko`rib chiqishadi va taqqoslashadi;
- yirik ijtimoiy-mehnat muammolarini hal etishga yo`naltirilgan xalqaro maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Ushbu vazifalar Jeneva shahri (Shveytsariya)dagi ijtimoiy-mehnat muammolari Xalqaro instituti zimmasiga yuklatilgan.

# Xalqaro mehnat tashkiloti

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, XMTning umumiyligi prinsipi, ya'ni jahon masshtabidagi mehnat sohasidagi ma'lumotlarni jamash va metodologik qo'llanmalarini ishlab chiqishni shakllantirsak bo`ladi. Bu yo`nalishlar XMTga mehnat va bandlik sohasidagi holat haqida jahon hamjamiyati va mutaxassislarga ma'lumot berishi mumkin. XMT tomonidan quyidagi masalalar bo`yicha statistika metodologiyasi ishlab chiqilmoqda:

# Xalqaro mehnat tashkiloti

- tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- nashriyot faoliyati;
- davlatlarga mehnat qonunchiligini rivojlantirishga ko`maklashish;
- kasbiy-texnik malakani oshirish Xalqaro markazi (Italiya, Turin sh.) doirasida kasbiy ta'limni rivojlantirish.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Mehnat resurslarining asosiy kategoriylariga quyidagi mehnatga layoqatli aholi kiradi:

- ishbilarmon aholi;
- iqtisodiy faol aholi.

Undan tashqari xalqaro statistikada «umumiy mehnat resurslari» atamasi foydalaniladi. Har bir kategoriyanı ko`rib chiqamiz.

Qoidaga ko`ra mehnatga layoqatli aholi – bu 15 yoshdan 64 yoshgacha bo`lgan aholi, lekin ushbu ko`rsatkichni baholayotganda milliy farqlar bo`lishi mumkin.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Mamlakat rivolanish darajasi va mehnatga layoqat yoshi chegarasi qoidaga ko`ra o`zaro bog`liqdir. Mamlakat rivoji qanchalik yuqori bo`lsa, mehnatga layoqatning quyi chegarasi shunchalik katta va yuqori chegarasi shunchalik kichik.

- Mehnatga layoqat yoshi chegarasi turli davlatlarning qonunchilik hujjatlariga ko`ra milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni hisobga olgan holda belgilanadi. Misol uchun, Rossiya, AQSh, JARda mehnatga layoqat yoshining quyi chegarasi 16 yosh; Fransiya, Angliya, Yaponiya, Ozarbayjonda – 15 yosh; Qozog`istonda – 14 yosh; Pokistonda – 12 yosh; Beninda – 10 yosh; Misrda – 6 yosh. Yuqori chegarasi (nafaqa yoshi) O`zbekistonda ayollar uchun 55 yosh va erkaklar uchun 60 yoshga teng; Angliyada – ayollar uchun 60 yosh va erkaklar uchun 65 yosh; AQSh, FRG, Kanada, Ispaniyada ayollar va erkaklar uchun bir xil 65 yosh qabul qilingan. Mehnatga layoqatli aholi tarkibiga mehnatga layoqatli yoshda bo`lgan nogironlar kiritilmaydi.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Iqtisodiy faol aholi (IFA) — BMTda ishlab chiqilgan hamda foydalaniladigan kategoriya. Bu ishlab chiqarishda potensial ravishda qatnasha oladigan shaxslar. Aynan MST (milliy schyotlar tizimi) ga binoan klassifikatsiyalangan moddiy boyliklar va xizmatlar ishlab chiqarish nazarda tutilgan.

Iqtisodiy faol aholining sonini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalansak bo`ladi:

Mehnatga layoqatli yoshdagি aholi – Davlat qaramog`idagi aholi = Mehnatga layoqatli yoshdagи IFA.

Mehnatga layoqatli yoshdagи IFA + Ishlab chiqarishda band bo`lgan o`smir va nafaqaxo`rlar = IFA.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Umumiy mehnat resurslari. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) 1954 yildan beri ushbu kategoriyanicht davlatlarning mehnat potensiallarini tavsiflash uchun qo`llaydi. IHRT xalqaro statistika bilan faol shug`ullanadi, tarkibida mehnat statistikasi bilan bir qatorda demografik ko`rsatkichlar ham ko`rsatilgan mehnat ko`rsatkchlarining metodologik hisobi va statistik nashrlarga ega. Ulardan yetakchi o`rinni «Labour Force Statictics» egallab turibti. Ushbu nashrdagi sxemada AQSh uchun 1991 yilda «mehnat resurslari» ishlab chiqish to`g`risida keng ma'lumot berilgan.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Bu koeffitsiyentlarning hammasi yagona metodologiya bo`yicha hisoblanadi — absolyut ko`rsatkichning o`rtacha yillik aholi soniga nisbati sifatida. Shuning uchun ham ular quyidagi formulalar bo`yicha hisoblanadi:

$$K_{\text{tug'}} = \frac{S_{\text{tug'}}}{S_{\text{umum}}}; \quad K_{\text{o'lim}} = \frac{S_{\text{o'lim}}}{S_{\text{umum}}}; \quad K_{\text{tab. o'sish}} = \frac{S_{\text{tug'}} - S_{\text{o'lim}}}{S_{\text{umum}}},$$

$$K_{\text{mex.ko'p}} = \frac{S_{\text{o'sish}}}{S_{\text{umum}}}; \quad K_{\text{mex.ko'p}} = \frac{S_{\text{kam}}}{S_{\text{umum}}}; \quad K_{\text{mex. o'sish}} = \frac{S_{\text{o'sish}} - S_{\text{kam}}}{S_{\text{umum}}}.$$

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Huddi shu yo`l bilan mehnatga layoqatli aholi uchun tabiiy va mexanik harakat koeffitsiyentlarini ham hisoblasa bo`ladi. Bu holda sur'atda faqat mehnatga layoqatli aholining harakati ko`rsatkichining absolyut qiymatini ko`rsatish, mahrajda esa mehnatga layoqatli aholining o`rtacha qiymatini ko`rsatish kerak.

Ushbu holda tabiiy qo`shilish ko`rsatkichi sifatida mehnat layoqati yoshi chegarasidan chiqqan, lekin shu davrda iqtisodiy faoliyat bilan shug`ullanuvchi shaxslar xizmat qiladi.

Tabiiy kamayish ko`rsatkichi sifatida esa: nafaqaga chish munosabati bilan kamayish, nogironlik bo`yicha, hamda mehnatga layoqatli yoshda bevaqt o`lim natijasida bo`lishi mumkin.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Iqtisodiy faol aholi - ma'lum davr mobaynida o`z mehnatlarini iqtisodiy tovar ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatishga sarflaydigan, ikkala jinsning hamma vakillarini o`z ichiga qamrab oladi. Iqtisodiy faol aholining ikki tushunchasi bor — bu oddiy faol aholi, bu tushuncha uzoq vaqt davomida o`rganish orqali beriladi (qoidaga ko`ra bir yilda), va joriy faol aholi yoki, boshqacha qilib aytganda, ishchi kuchi, bu ko`rsatkichlar, qisqa o`rganish davrida o`zgaruvchan bo`ladi (bir kun yoki bir hafta).

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

- ✓ **Ish beruvchi:** shaxsiy biznesini boshqaruvchi hamda o`z shtatida bir yoki undan ko`p ishchilari mavjud shaxs.
- ✓ **Mustaqil xo`jayin:** shaxsiy biznesini boshqaruvchi, lekin o`z shtatida bitta ham ishchisiga ega bo`lmagan shaxs.
- ✓ **Yollanma ishchi:** davlat yoki xususiy tashkilotda ishlovchi va o`z mehnati uchun vaqtbay ish haqi, maosh, komissiya haqi, choy chaqa,akkord to`lovi yoki natural shakldagi to`lov ko`rinishida mukofot oluvchi shaxs.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

- ✓ **To`lanmaydigan ishchilar**, oilaviy biznesda ish haqisiz ishlaydigan va tashkilot rahbarining oila a'zolari bo`lgan shaxslar.
- ✓ **Ishlab chiqaruvchilar kooperativi a'zolari**: ishlab chiqarish faoliyatidan qat'i nazar kooperativga birlashgan ishlab chiqarish guruhi a'zosi bo`lgan shaxs.
- ✓ **Holati noaniq shaxslar**: holati noaniq ishchilar, hamda avval ishlamagan ishsizlar.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

## I. «To`lanadigan bandlik»:

- a) «ishlovchilar» — naqd pul yoki natural shaklda oylik maosh olish maqsadida hisobot davri mobaynida ishlovchi shaxslar;
- b) «ishlovchilar, lekin hisobot davrida ishlamayotganlar» — ishlovchilar safida turuvchi, lekin hozir vaqtincha ishga bormayotganlar va ish bilan rasmiy aloqani saqlab turuvchi shaxslar. Bu rasmiy aloqalar quyidagilardan tashkil topishi mumkin: oylik maosh to`lanishi davom etadi; ishga qaytish kafolati mavjud; ishda vaqtincha bo`lmaslik va uning yordam pullari bilan kompensatsiyalanishi.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

## II. «Mustaqil bandlik»:

- a) «ishlovchi xo`jayin», - hisobot davri mobaynida naqd pul yoki natural shaklda foyda olish yoki oilaviy daromad olish maqsadida ish bajargan shaxslar tushuniladi;
- b) «ishlamaydigan xo`jayin» — shaxsiy biznesiga ega, lekin hozirgi kunda bazi bir sabablarga ko`ra o`z faoliyati bilan shug`ullanmayotganlar.

Xalqaro statistika nashriyotlarida «qandaydir ish» tushunchasi uchrab, u kamida haftasiga bir soat davomida bajarilgan ishga aytildi.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Ishsizlikning davomiyligi (ish qidirishning davomiyligi) — bu shaxsnинг har qanday usullardan foydalanib ish qidirishni boshlagan vaqtidan biror bir variantni ko`rib chiqayotgan vaqtigacha ish qidirish davri hisoblanadi.

Iqtisodiy faol (aktiv) aholi, band aholi va ishshiz aholining qiymati asosida ularning mehnat faol (aktiv)ligi, bandligi va ishsizligi koeffitsiyenti aniqlanadi.

Shu bilan birga bandlik va ishsizlik koeffitsiyentlarini ikki variantda hisoblasa bo`ladi:

- a) Jami aholiga nisbatan;
- b) iqtisodiy faol (aktiv) aholiga nisbatan.

Quyidagi formulalar bo`yicha hisoblanadi:

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Shunday qilib, ishsizlik ta’rifining milliy aniqlanishi xalqaro standartda keltirilgan tavsiyalardan farq qilishi mumkin. Xususiy holatda, turli davlatlarda mehnatga layoqatli yosh chegarasi; o`rganish davrlari; ish qidirish kriteriyalari; vaqtincha ishdan bo`shagan va umrida birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarning hisobini yuritish turlicha amalgaga oshishi mumkin.

Ishsizlikni tadqiq etayotganda quyidagi statistik ko`rsatkichlar qo`llaniladi:

Ishsizlik darajasi — iqtisodiy faol aholidagi ishsizlar miqdorining solishtirma og`irligi.

$$D(i) = S_i / S_{i.k.} \times 100\%$$

**D(i)** – ishsizlik darajasi;

**S<sub>i</sub>** – ishsizlar miqdori;

**S<sub>i.k.</sub>** – ishchi kuchi

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

$$K_{akt} = \frac{S_{akt}}{S_{umum}};$$

$$K_{ishsiz} = \frac{S_{ishsiz}}{S_{umum}}; K_{band} = \frac{S_{band}}{S_{umum}};$$

$$K_{ishsiz} = \frac{S_{ishsiz}}{S_{akt}}; K_{band} = \frac{S_{band}}{S_{akt}}.$$

*S<sub>akt</sub> – aktivaholi*

*S<sub>ishsiz</sub> – ishsizaholi*

*S<sub>band</sub> – jamiishlaydigan*

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Tushunarliki, ishsizlar sonini bandlar soniga qo`shsak aktiv aholining umumiyligi soni kelib chiqadi. Shuning uchun bandlik koeffitsiyenti, ishsizlik koeffitsiyentiga qo`shilganda yig`indi 1ga teng bo`ladi. Formula ko`rinishida quyidagcha tasvirlasa bo`ladi:

$$\frac{S_{\text{ishsiz}}}{S_{\text{aktiv}}} + \frac{S_{\text{band}}}{S_{\text{aktiv}}} = 1 \quad K_{\text{ishsiz}} + K_{\text{band}} = 1.$$

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Friksion hamda strukturali ishsizlik orasidagi farqlar bu friksion ishsizlarning o`z tajribasi bo`lib, uni sotishlari mumkin, strukturali ishsizlar esa qayta tayyorgarliksiz, qayta o`qitishsiz, yashash joyini almashtirmasdan darrov yangi ishga kirolmaydilar. Qisqa muddatli friksion ishsizlikdan qat'i nazar strukturali ishsizlik uzoq vaqtli va shuning uchun ham jiddiy hisoblanadi.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Friksion va strukturali ishsizlik bozor iqtisodiyotida qutulib bo`lmaydigan havf hisoblanadi. Tushunarliki, har doim shunday ishchilar bo`ladiki, ular yanada malakasi yoki maosh yuqoriqoq lavozim va ish qidirishadi, shuningdek o`zlari uchun ideal ish ahtarib, friksion ishsizga aylanib qolishadi. Shu asosda strukturali ishsizlikdan ham qutulib bo`lmaydi. Agar ilmiy-texnik yangilanishlar kuchayib ketsa, innovatsion g`oyalar va yangi texnologiyalar kirib kelsa, bazi bir mutaxassislarga talab kuchayadi, lekin boshqalari ishga joylashish bo`yicha muammolarga duch kelishi mumkin.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

Mamlakat rasmiy ishsizlik darajasi, odatda haqiqiy ko`rsatkichdan kichik bo`ladi va farq «yashirin ishsizlik» deb nomlanadi. Tahlilchilar doimo shuni e'tiborga olishadiki, ishsizlarning bazilari ishini yo`qotganlar sifatida ro`yhatdan o`tishni hohlashmaydi va ishni o`zlari qidirishadi yoki shu sohada statistika hisobotini yuritmaydigan nodavlat tashkilotlari xizmatidan foydalanishadi. Yashirik ishsizlikka to`liqmas bandlik ham kiradi. Chunki u mehnat bozoridagi talab va taklif haqiqiy sur'atini buzib, raqobatni susaytiradi va shu orqali ishchi kuchi narhi tushadi.

# Mehnat resurslarining asosiy kategoriyalari

«Bandlar» va «ishsizlar» tushunchalaridan tashqari «to`liqsiz bandlik» tushunchasi ham mavjud. To`liqsiz bandlikning ta'rifi XMT tavsiyalariga asoslanadi. Ularga ko`ra to`liqsiz band shaxslarga ish bilan ta'minlangan, lekin to`liq ish vaqtি ishlaymaydiganlar kiradi. Bu holat ularning o`z hohishlariga binoan bo`lmayotganligi sabali, ular qo`sishma ishni bajarishni hohlashadi. To`liqsiz bandlar qatoriga yana bandlikka ega bo`lib, to`liq ish vaqtি ishlaydigan, lekin o`z malaka darajasidan past darajada ishlaydigan, demak keragidan kam maosh oluvchilar ham kiradi. Ularning maoshlari albatta o`z malakasiga ko`ra ishlasalar o`sadi.